

ZARGARLIK BUYUM NOMLARINING TURK, O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI QIYOSIY TADQIQI

A COMPARATIVE STUDY OF JEWELRY NAMES IN TURKISH, UZBEK, AND ENGLISH.

СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ НАЗВАНИЙ ЮВЕЛИРНЫХ ИЗДЕЛИЙ НА ТУРЕЦКОМ, УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Suyarqulova Gulchexra Marat qizi

O‘zbekiston Jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti 2519- guruh talabasi

Ilmiy rahbar: SH.S.Mamatkulova,

Annotatsiya: Zargarlik buyumlari insoniyat madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lib, ular nafaqat bezak, balki xalqning estetik qarashlari, urf-odatlari va tarixiy qadriyatlarini ham o‘zida mujassam etadi. Har bir xalq zargarlik buyumlarini o‘z tili, madaniyati va dunyoqarashiga mos ravishda ataydi. Shu bois, mazkur maqolada zargarlik buyumlarining nomlarini O‘zbek, turk va Ingliz yillarida nomlashi, zargarlik buyumlari nomlarini qiyosiy o‘rganishni ko‘rib chiqamiz. Mazkur tadqiqotda zargarlik buyumlarning o‘xshash va farqli jihatlari, semantik va etimologik xususiyatlari o‘rganiladi. Ushbu qiyosiy tahlil turkiy va g‘arb tillari o‘rtasidagi leksik aloqalarni yoritishga, shuningdek, milliy madaniyatlar o‘rtasidagi umumiylik va o‘ziga xosliklarni aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: zargarlik buyumlari, madaniyat, urf-odat, estetik qarashlar, zeb-ziynat buyumlari

Аннотация: Ювелирные изделия являются неотъемлемой частью культурного наследия человечества. Они представляют собой не только

украшения, но и отражают эстетические взгляды народа, его обычаи и исторические ценности. Каждый народ называет ювелирные изделия в соответствии со своим языком, культурой и мировоззрением. Поэтому в данной статье рассматриваются наименования ювелирных изделий в узбекском, турецком и английском языках, а также проводится их сопоставительный анализ. В исследовании изучаются сходства и различия в названиях ювелирных изделий, их семантические и этимологические особенности. Данный сравнительный анализ способствует выявлению лексических связей между тюркскими и западными языками, а также определению общих и уникальных черт между национальными культурами.

Ключевые слова: ювелирные изделия, культура, обычаи, эстетические взгляды, украшения

Annotation: Jewelry is an integral part of the cultural heritage of humanity. It represents not only decoration, but also reflects a nation's aesthetic views, traditions, and historical values. Each nation names its jewelry items in accordance with its language, culture, and worldview. Therefore, this article examines the names of jewelry items in Uzbek, Turkish, and English, and provides a comparative analysis of them. The study explores the similarities and differences in jewelry terminology, as well as their semantic and etymological features. This comparative analysis helps to reveal lexical connections between Turkic and Western languages and identify both common and unique aspects of national cultures.

Keywords: jewelry, culture, traditions, aesthetic views, ornaments

Zargarlik zeb-ziynat buyumlari har bir mamlakatning- milly va madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, u xalqning olis o'tmishidagi olis maqsadlarini o'zida mujassamlashtirgandir. Insoniyat tarixida zargarlik buyumlari nafaqat bezak sifatida, balki madaniyat, an'ana va ijtimoiy mavqening ifodalanishi sifatida muhim o'rin egallab kelgan. Har bir xalq o'z zargarlik san'atida milliy ruh, estetik qarash va tarixiy

tajribasini aks ettiradi. Zargarlik buyumlarining paydo bo‘lishi insoniyat tarixining eng qadimiy davrlariga borib taqaladi. Dastlab insonlar mavjud materiallar - suyak, qobiq, tosh va turli xil o‘simliklardan tayyorlangan bezaklardan foydalanganlar. Keyinchalik [neolit – bronza] texnologik imkoniyatlar kengayishi sababli oltin, kumush, bronzadan yasalgan turli xil shakldagi zargarlik buyumlari yaratilgan. Masalan, arxeologik topilmalarga ko‘ra, eng qadimiy zargarlik buyumlari sifatida perforatsiyalangan dengiz chig‘anoqlaridan yasalgan Nassarius marjoni e’tirof etiladi. [1. p. 36]. Shuningdek, Qadimiy marjonlar 100 000 yil avvalgi qatlamlardan topilgan.[Lee et al., 2007; Bouzouggar et al.nashriyoti, 2007] Bundan tashqari, zargarlik buyumlari insonning madaniy va estetik dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim belgilardan biri bo‘lib, insonning jamiyatdagi mavqeini ham ko‘pincha unda qimmatbaho zargarlik buyumlari borligiga qarab belgilangan. Insoniyat tarixining eng qadimiy davrlaridanoq bezanish, ma'naviy ehtiyoj mavjud bo'lgan. Shu kabi bir qancha ehtiyoj sabab zargarlik buyumlari, ya'ni turli taqinchoqlar paydo bo'lgan. Ko'plab qadimiy xalqlarda zargarlik buyumlari himoya vositasi sifatida ham foydalanilgan. Masalan: bronza davriga oid aloxida bezaklar shakli(chakkaga osiladigan shokillar, bilaguzuklar), marjonlarni shodaga terish tizimining mavjudligi xosildorlik va abadiylik g'oyasi bilan big'liq bo'lgan ilon ilohasining mavjudligidan dalolat beradi. Ilon uy himoyachisi, donolik va farovonlik ramzi, shuning uchun uning obrazi ayollar taqinchoqlarida ko'p tasvirlangan. Shuningdek ko'zmunchoqlar yovuz ko'zdan saqlaydi deb ishonilgan. [Zargarlik an'anasi. Buxoro tarixini o'rganish manbai. Ochilov Alisher, 2018]. Bu turk tilida "Nazar boncuğu" Turkiyada keng tarqalgan folklorik, himoya maqsadli buyum bo‘lib, ingliz tilida “Evil-eye bead” deb ham ataladigan yomon ko'z turk madaniyatiga chuqur singib ketgan tushunchadir.[Nazar: Turk madaniyatida yomon ko'z Turkish Textbook]. Bu la'nat, salbiy energiyaning bir turi yoki hasad yoki hasad natijasida paydo bo'lgan qorong'u ruhiy kuchning bir shakli ekanligiga ishoniladi. Bu odamga yoki uning mulkiga zarar va baxtsizlik keltiradi, deb ishoniladi. Yomon ko'zga bo'lgan bu ishonch asrlar davomida mavjud bo'lib, bugungi kunda ham turk jamiyatida keng tarqalgan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi glaballashuv zamonda turli xalqlarning madaniyati va tili bir-biriga ta'sir qilmoqda. Zargarlik buyum nomlari esa bu jarayonni yaqqol ko'rsatib beradi, chunki ular nafaqat bezak, balki milliy ramz, qadriyat va e'tiqod ifodasi hisoblanadi. Zargarlik buyumlarining asosiy qismi ko'p yillardan buyon oltindan yasab kelinmoqda. Oltin taqinchoqlar zargarlik ixlosmandlari tomonidan yuqori baholanadi. Shuningdek, ular boshqa turdagi qimmatbaho metal (kumush, mis, bronza) va toshlardan, tabiiy materiallardan (suyak, qobiq, marvarid, yog'och)dan ham tayyorlanadi.

Zargarlik buyum turlari odatda tananing qaysi qismiga taqalishi yoki ishlatilish maqsadiga qarab turlarga ajratiladi. Masalan: bosh bezaklari (taç, shokila, hair ornament), bo'yin bezaklari (kolye, tumor, amulet), qo'l bezaklari (uzuk, bilezik, bracelet), bel bezaklari (belbog', kemer takisi), oyoq bezaklari (oyoq halqasi, halhal). Har bir zeb-ziynat buyum xalqning leksik madaniy qatlamini aks ettiradi. bunga misol qilib, o'zbek tilidagi "tumor" va turk tilidagi "muska" so'zlari himoya va e'tiqod bilan bog'liq, ingliz tilidagi "amulet" esa lotin diniy ramzi sifatida qaraladi. Har bir xalq zargarlik buyumlarini o'z tili, diniy qarashlari va urf-odatlariga asosida nomlagan. Tahlil jarayonida o'zbek turk va ingliz tillarida uchraydigan zargarlik buyumlari nomlari o'xshash va farqli jihatlari bilan quyidagicha guruhlashtirildi:

Zargarlik buyum nomlarining etimologik tahlili: O'zbek tilidagi "uzuk" so'zi qadimgi turkiy *üzük* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "aylana shakl" degan ma'noni bildiradi. Ingliz tilidagi "ring" esa "aylanmoq" manosi *hringaz* (germancha ildiz) dan olingan. Turkiy tildagi "yüzük" ham xuddi shu ildiz bilan bog'liq. [Mahmud al-Koshg'ariy. Divoni lug'ati Turk]. "Sirg'a" so'zi ham qadimiy turkiy sirgar yoki sirig shakllaridan kelib chiqqan degan turli qarashlar mavjud. Aslida "sir-" teshmoq, o'tkazilgan degan ma'noni bildiradi. Demak, Sirga- "teshilgan joyga taqiladigan bezak" degan ma'noni bildirgan. Turk tilidagi *küpe* so'zi ham qadimgi turkiy ildizga ega. Qadimiy shakllari *küpeğ*, *küpä* tarzida bo'lgan. Turkiyada *küpe* nafaqat quloq bezagi, balki madaniy ramz – "ayollik, nafislik, go'zallik belgisi" sifatida ham juda mashhur. **Earring** so'zi ingliz tilida ikki so'zdan tarkib topgan bular "ear" ya'ni

“quloq” hamda “ring” – halqa yoki dumaloq shakl degan ma’noda. Earring so’zi bevosita “quloq uchun halqa” ma’nosini ifodalaydi. Bu so’z german tillaridan kirgan bo’lib qadimgi inglizchada “eare hring” shaklida ishlatilgan.[Oxford English Dictionary (OED); EtymOnline.com]

Zargarlik buyumlari nomlari xalqning tili madaniyati va estetik dunyoqarashini o’zida mujassam etgan muhimi leksik birliklardir. Turk, o’zbek va ingliz tillarida bu so’zlarning shakli va kelib chiqishi turlicha bo’lsa-da, ularning mazmuniy holati bir ya’ni insonninggo’zalikka, nafislikka, va e’tiqodga bo’lgan intilishi bilan bog’liq. Qiyosiy tahildan turkiy tillarda (o’zbek va turk) zargarlik buyumlari nomlarida madaniy ma’no kuchliroq, ingliz tilida esaular estetik va amaliy xarakterga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vanhaeren & d’Errico, 2006.
2. Zargarlik an’anasi. Buxoro tarixini o’rganish manbai.Ochilov Alisher, 2018
3. Mahmud al-Koshg’ariy. Divoni Lug’ati Turk. XI asr.
- 4.Oxford English Dictionary (OED); EtymOnline.com
- 5.Lee et al., 2007; Bouzouggar et al., 2007